



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темура кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Комил Бахрамович Уразов, Лобар Джафаркуловна Алиева Корхоналар соф активларидаги ўзгаришларга аудиторлик баҳосини бериш	160
БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Хуббим Аскарлович Улашев Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш орқали камбағалликни қисқартиришга эришиш чоралари	167
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Иқтисодиётнинг турли соҳаларида ўзини ўзи банд қилиш билан боғлиқ хизматларнинг асосий йўналишлари	172
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Ithom Begmatdulobovich Mattiyev Talabalarda salomatlikni ta'minlash jarayonida jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirishga bo'lgan dunyoqarash omillari	178
Акмал Алимжонович Салимов Таълим тизимини самарали бошқаришда “умр давомида таълим” концепциясининг ўрни	182
Sherzod Alimardonovich Kuldashev Та'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari	186
Mirzabek Kulmamatovich Jonuzokov O'zbekiston oliy ta'limida investitsiyaviy jozibadorlik: muammo va yechimlar	191
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Пардаев, Мурод Муҳаммедов Таълим соҳасида Япония ва Хитой тажрибаларидан айрим битиклар	197

ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА

Ithom Begmatdulobovich Mattiyev – SamISI, “Tillarni o‘qitish” kafedrasida dotsenti, DSc.

TALABALARDA SALOMATLIKNI TA’MINLASH JARAYONIDA JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOMLASHTIRISHGA BO‘LGAN DUNYOQARASH OMILLARI

Annotasiya: ushbu maqolada o‘quv dasturlari mazmunini zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalar yordamida qo‘shimchalar bilan boyitish, talabalarda salomatlikni targ‘ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish, muayyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta’minlash, mehnat gigiyenasi, ovqatlanish, dam olish va tashqi muhitning zararli faktorlari va hokazolar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: kompetentli, innovatsion, xalqaro andozalar, sog‘lom turmush tarzi, texnologiya, milliylik ruhida, zamonaviy, pedagogik ta’lim, yondashuvlar, imkoniyatlar, dunyoqarash.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash¹, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish” kabi ustuvor vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi[1]. Jumladan, o‘qituvchilar tayyorlash tizimi xalqaro andozalarga muvofiq salomatlikni targ‘ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish talablari asosida yangicha yondashuvlar isloh qilinishi bilan bog‘liq amaliy ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Oliy pedagogik ta’limda talabalarga o‘quv dasturlari mazmunini zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalar yordamida qo‘shimchalar bilan boyitish, yosh avlodni milliylik ruhida bilimli va uquvli, har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashga qodir yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son “O‘zbekiston Respublikasi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi, 2020-yil PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-30” dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175-sonli Qarori hamda 2005-yil 25-yanvardagi “Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ma’naviy boy avlodni tarbiyalash, fuqarolarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga keng jalb etish borasida”gi 30-sonli bayonnomasida belgilangan vazifalarni ilmiy jihatdan hal etishga doir ishlar amalga oshirildi².

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A.T.Nurmanov, X.A.Meliyev, R.A.Abdurasulov, T.Abdullayeva, Sh.Sharipov, I.Jabborov, Y. va boshqalar shaxs ma’naviyati, madaniyati, uning

¹ “ТАФАККУР ЗИЙОСИ” ilmiy-uslubiy jurnali 2022/4-son

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари www.lex.uz, www.regulation.uz, www.xs.uz, www.review.uz ва бошқа манбалар асосида олинди.

ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy madaniyatning roli, sog'lom turmush tarzi va uning falsafiy jihatlarini tadqiq etgan. Pedagog olimlar A.Abduqodirov, U.Begimqulov, R.Djo'rayev, X.Ibragimov, K.Risqulova, D.Ro'ziyeva, Davletshin M.G., Shoumarov G.B., M.Quronov¹ va boshqalar ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash masalalarini turli jihatlarini o'rgangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari A.F.Georgiyevskiy, A.D.Dubachay, A.D.Karabasheva, Ye.A.Mensh, G.P.Novikova va boshqalar tomonidan uzluksiz ta'limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, ta'lim mazmunining uzviyligi, umumiy o'rta hamda oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalarini sog'lom hayot tarzi asosida tarbiyalash, ta'lim berish masalalari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga doir o'quv-ilmiy manbalar, DTS dagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o'rganish, analiz va sintez, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so'rovnomalarda o'tkazish, monitoring, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar. Sog'lomlashtirish omillarida jismoniy barkamol-avlod tarbiyasi va uning kamoloti, barqaror turmush tarzi madaniyati orqali yo'lga qo'yiladi. Unga asosiy mezon bo'lib, individning salomatlik darajasi olinadi. Sog'lomlik, salomatlik esa inson jismining kamolotiga borib taqaladi va uning tamal-toshini qo'yish biologik yoshining ilk davridan amalga oshiriladi. Ulug' maqsadlarga erishish, farovon turmush, inson zotiga munosib hayot barpo etish, avvalo mavjud jamiyat a'zolari – komillikka intilayotgan kelajagimiz, yosh avlodga bog'liq. Sog'lom turmush, faol optimal faolligi o'zining nazariy asoslariga ega, lekin bu muammo hozirgi kungacha to'liq o'rganilmagan².

Ekologik omil. Inson salomatligini uning tabiat va jamiyat bilan o'zaro murakkab aloqasining kompleks natijasi deb qaralmog'i lozim. Shu munosabat bilan jamiyat salomatligi progressiv o'zgarishlarni, yangi ekologik sharoitlarda inson evolyusiyasini ta'minlovchi jarayon sifatida qaralishi mumkin. Shunday qilib, jamiyat salomatligi - yangi tushuncha bo'lib, u avlodlar almashinuvi jarayoni, ularning psixofiziologik, intellektual, individual salomatlik kafolati, reproduktiv imkoniyatlari kafolatini o'zida mujassamlashtiradi. Insonning o'zi uchun xavfli ta'sir etuvchi ekologik omillar qatoriga, shuningdek yirtqichlar va kasallik keltirib chiqaruvchilar kiradi (parazitlar va patogenlar - ov qilish va tibbiyot yutuqlari natijasida shunchalik siqib chiqarilganki, butun dunyoda yirtqichlar inson uchun hech qanday ahamiyatga ega emas, parazitlar esa yuqori rivojlangan shaharlarda o'z ahamiyatini hali yo'qotmagan).

Ijtimoiy omil. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda kishi boshiga olinayotgan daromadning 8-12 karra farqlanishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan chegaraviy aholi guruhlarida salomatlik ko'rsatkichlarining 5-6 karra farqlanishiga olib keladi. Kamroq daromadga ega shaxslar ko'proq kasal bo'ladi, profilaktika yordamiga kamroq murojaat qiladilar, o'lim ko'rsatkichlari ularda yuqori. Yuqori daromadli aholi guruhlari tibbiy yordamning profilaktik turlaridan ko'proq foydalanadilar. Biroq muayyan moddiy farovonlikka erishgach, (o'rta sinf daromadlari) barcha aholi va konkret inson salomatligiga birinchi navbatda faqatgina moddiy imkoniyatlarning o'zigina emas, balki ularni salomatlik uchun ishlatilish xarakteri ta'sir o'tkaza boshlaydi. Muayyan moddiy farovonlikka erishish holati ma'lumot olganlik darajasiga bog'liqdir. Bir xil yoshdagi jinsiy guruhlarni taqqoslaganda, ma'lumoti yuqori darajada bo'lgan shaxslarda

¹ Djo'rayev R. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. - 87 b. pedagogik shart-sharoitlari (V-IX sinflar misolida): Dis...ped. fan. nomz.: - T., 2004. -213 b. Ismoilova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Dis...ped. fan. d-ri. – T., 2006. - 45 b. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. - Toshkent, 1993. – 364 b. Ro'ziyeva D. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Dis...ped. fan. d-ri. – Toshkent, 2007. - 274 b. Sharipov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi «Islom Karimov modeli» O'zbekiston mustaqilligining yuksak yutug'i va natijasi/ O'quv qo'llanma. - Akad. T.Rixsiyev tahriri ostida. – Toshkent, 2013. - 234 b. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. – Toshkent, 1998. – 316 b.

² Mattiyev I. B. Pedagogik yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalarda salomatlikni targ'ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish texnologiyalari: Dis. ...ped. fan. d-ri. - J., 2023.

ma'lumoti pastroq darajada bo'lganlarga nisbatan o'lim holati 2-5 marta kamroq ekanligi ma'lum bo'lgan.

Gigiyenik omillar Jismoniy mashqlarning me'yor, yuklanmaning umumiy miqdori, mashqning intensivligini e'tibordan chetda qoldirish tabiatni sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishda salbiy natijalarga olib kelishini unutmazligimiz lozim. Shug'ullanuvchilarga quyosh vannasi, suvda chiniqishning nazariy bilimlari va ulardan tizimli foydalanish, havoning o'zgarishi organizmning issiq-sovuqqa, keskin o'zgarishlarga tez moslashishi individning yoshligidan yo'lga qo'yishni samarasi katta. Har tomonlama chiniqtirish tabiat omillarini turli jismoniy mashqlarni bajarish bilan qo'shib olib borilishi tashqi muhitning salbiy ta'sirlariga organizmning qarshilik ko'rsata olish qobiliyatini yanada oshiradi. Jismoniy tarbiya jarayonida erishilgan chiniqishning samarasi “ko'chuvchan” bo'ladi, ya'ni u insonning boshqa faoliyati (asosan, mehnat, harbiy xizmat) da namoyon bo'ladi va jismoniy tarbiyaning hayotiy-amaliylikni oshiradi. Qolaversa, ruhiy-irodaviy hislatlarini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, chayqalish, tebranish, me'yorsiz yuklamaga chidash, holatiga tez moslashishdek vazifalar oson hal bo'ladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari inson hayotiy faoliyatining organik qismiga aylansagina jismoniy tarbiya tizimining sog'lomlashtirilishiga yo'naltirilgan prinsipini amalga oshirishning imkoni bo'ladi. Boshqa tomondan, kerak bo'lgan gigiyenik normalarga rioya qilinsagina jismoniy mashqlar kerak bo'lgan samarasini beradi¹.

Xulosa va takliflar. Ushbu muammoning hayotiy va ilmiy dolzarbligidan kelib chiqqan holda olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Oliy o'quv yurtlari talabalarida ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha salmoqli tahliliy materiallar mavjudligiga qaramasdan, talabalar o'rtasidan sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni takomillashtirishga xizmat qiluvchi muayyan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishning mantiqiy asoslari bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda.

Tegishli masalani hal qilish yoshlarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashni takomillashtirish, butun jamiyatning, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy kuchlarining davlat miqyosida hamkorligini taqozo etadi. Ko'rib chiqilayotgan muammo, ayniqsa, maktabgacha yoshdan boshlab, uzluksiz, oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim muassasalarida keskin bo'lishi kerak. O'sib borayotgan shaxsning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini shakllantirish izchil xarakterga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, insonning sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarashini takomillashtirish jarayoni davlatning milliy g'oyasiga, eng muhim vazifasiga aylanishi kerak;

- shaxsning qadriyat yo'nalishlari orasida salomatlik ustunlik qiladi, bu uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va barkamol rivojlanishini ta'minlaydi. Bu insonning atrofdagi dunyoni faol bilishiga hissa qo'shadi va uning o'z-o'zini tasdiqlashi va o'z-o'zini anglashi uchun sharoit yaratadi va to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikning dinamik holati sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, insonning moslashuvchan resurslari ekstremal vaziyatlarda ham optimal hayotni saqlab qolish qobiliyati sifatida joylashtirilgan. Sog'liq inson ongida dunyoning alohida rasmini shakllantiradi, chunki shaxsning o'z hayot yo'lini belgilashda qo'ygan vazifalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratadi; - sog'lom turmush tarziga bo'lgan dunyoqarash insonning o'z xulq-atvoridan xabardor bo'lishi, his-tuyg'ulari va fikrlarini nazorat qilish, oiladagi va atrofdagi munosabatlarni tartibga solish, yomon odatlardan voz kechish, shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, hayot uchun ijobiy hissiy muhit yaratishga asoslanishi kerak. Shu bilan birga ushbu dunyoqarashni takomillashtirishga qaratilgan ta'lim jarayoni shaxs salomatligining qadriyati butun jamiyatning qadriyati sifatida ko'rib chiqiladi, bu ijtimoiy va individual ongning elementiga aylanishi kerak bo'ladi.

¹ Mattiyev I. B. Pedagogik yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalarda salomatlikni targ'ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish texnologiyalari: Dis. ...ped. fan. d-ri. - J., 2023.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари www.lex.uz, www.regulation.uz, www.xs.uz, www.review.uz ва бошқа манбалар асосида олинди.
2. Djo‘rayev R. Ta’limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent, 2010. - 87 b. pedagogik shart-sharoitlari (V-IX sinflar misolida): Dis...ped. fan. nomz.: - T., 2004. -213 b.
3. Ismoilova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Dis.ped. fan. d-ri. - T., 2006. - 45 b.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. - Toshkent, 1993. – 364 b.
5. Ro‘ziyeva D. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Dis....ped. fan. d-ri. – Toshkent, 2007. - 274 b.
6. Sharipov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi «Islom Karimov modeli» O‘zbekiston mustaqilligining yuksak yutug‘i va natijasi/ O‘quv qo‘llanma. - Akad. T.Rixsiyev tahriri ostida. – Toshkent, 2013. - 234 b.
7. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning pedagogik asoslari: Dis ped. fan. d-ri. – Toshkent, 1998. – 316 b.
8. Mattiyev I. B.Pedagogik yo‘nalishlarda tahsil oluvchi talabalarda salomatlikni targ‘ib qiluvchi dunyoqarashni takomillashtirish texnologiyalari: Dis. ...ped. fan. d-ri. - J., 2023.
9. Mattiev, I. B. (2023). HEALTH AND WORLDWIDE TECHNOLOGY IN DEMAND. *Journal of marketing, business and management*, 2(8), 1-6.
10. Маттиев, И. Б. (2022). ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ КАТЕГОРИК МАЪНОСИ СОҒЛИҚ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИГА БЎЛГАН ҲАЁТ ЭҲТИЁЖИ: Маттиев Илхом Бегматдулобович Самарқанд иқтисодий ва сервис институти “Тилларни ўқитиш” кафедраси катта ўқитувчиси (PhD), доцент. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (12/2), 223-226.
11. Mattiyev, I. B. (2023). PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA REFLEKSIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 1(2), 771-774.

<p>И.Маттиев</p> <p>Факторы отношения к физическому воспитанию и здоровью в процессе обеспечения здоровья студентов</p> <p>Аннотация: в данной статье содержание образовательных программ обогащается дополнениями с использованием современных инновационных и педагогических технологий, совершенствования мировоззрения, способствующего укреплению здоровья обучающихся, контроля и обеспечения здоровья конкретного человека, гигиены труда, питания, отдыха и внешней среды, упоминаются вредные факторы.</p> <p>Ключевые слова: компетентный, инновационный, международные модели, здоровый образ жизни, технологии, в национальном духе, современный, педагогическое образование, подходы, возможности, мировоззрение.</p>	<p>I.Mattiev</p> <p>Factors of attitude on physical education and health in the process of ensuring the health of students</p> <p>Abstract: in this article, the content of educational programs is enriched with additions using modern innovative and pedagogical technologies, improving the worldview that promotes health of students, monitoring and ensuring the health of a specific person, occupational hygiene, nutrition, recreation and external environment, harmful factors are mentioned.</p> <p>Keywords: competent, innovative, international models, healthy lifestyle, technology, in the national spirit, modern, pedagogical education, approaches, opportunities, outlook.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.